

GAP BO'LAKLARI

Aliqulova Shaxlo Shukurullayevna

Samarqand Viloyati Urgut tuman MMTB ga qarashli

63-umumtalim matabi 1-tiofali ona tili va adabiyoti o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada gap bo'laklari va ularning bo'limlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Tilshunoslik, gap bo'laklari, ega, kesim, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.

Tilshunoslikda gap nutq birligidir. Shuning uchun, uning sintaktik tahlili nutq lingvistikasi qonun – qoidalari bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'ladi. Nutq lingvistikasi qonun-qoidalari esa endigina ilmiy asoslana boshladi. Shu sababli ular orqalisintaktik tahlilda o'z aksini topishi lozim bo'lgan gapning struktur butunligini tashkil etayotgan bevosita ishtirokchi elementlarning tildan nutqqa ko'chirilishi va bu jarayonda ularning qay tarzda sintaktik faollik olishi, sintagmatik zanjirning voqelanishidagi ulushi masalalarini izohlab bo'lmaydi.

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan vao'zaro tobe bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi gap bo'lagi deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarining turlarini belgilashda asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo'lak bo'lmas ekan, u yoki bu gap bo'lagi haqida gapirish mumkin emas.

Gap bo'laklarining gap tarkibidagi mavqei bir xil emas. Ba'zi gap bo'laklari gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi, bunday bo'laklarsiz fikr anglashilmaydi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida asosiy rol o'ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo'laklar orqali fikr anglashilaveradi. Shunga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajratiladi:

- 1) bosh bo'laklar;
- 2) ikkinchi darajali bo'laklar.

Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi. Ikkinchi darajali bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qilmasdan, uni hajm jihatdan kengaytiradi yoki so'z birikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan yoki o'zaro tobe aloqada bo'lib, ularni izohlash, aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat. Ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi va holdir.

Kesim orqali izohlanadigan fikr predmetni anglatadigan, gapning boshqa bo'laklariga tobe bo'lmagan bosh bo'lakka ega deyiladi. Ega keng ma'noda predmet tushunchasini bildirib, kesimdan anglashilgan predikativ belgining kimga yoki nimaga qarashlilikini ko'rsatadi.

Ega bosh kelishikdagi birliklar bilan ifodalanib, kim? nima? qayer? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Ega, odatda, yakka so'z: ot, olmosh, harakat nomi, otlashgan so'z (sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravishdosh, ravish, taqlid so'z, undov so'z, modal so'z) bilan ifodalanadi.

Ega anglatgan predmetning predikativ belgisini ifodalaydigan, ega haqidagi hukmni bildiradigan bosh bo'lak kesim deyiladi. Kesim o'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni grammatik jihatdan shakllantiradigan bosh bo'lak hisoblanadi.

Kesim ifoda materialiga ko'ra (qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra) ikki turga ajratiladi: 1) fe'l kesim; 2) ot kesim.

Fe'l kesim. Turli fe'l shakllari bilan ifodalanadigan kesim fe'l kesim deb yuritiladi: Yo'l chetida zarg'aldoqlar sayraydi. O'rik qiyg'os gullaganda, birdan havo sovib, laylakqor yog'ib berdi. Fe'l kesim ba'zan frazeologik ibora bilan ham ifodalanadi: Tog' etagida qishloqning mirzateraklari elas-elas ko'zga tashlanadi.

Ot kesim. Fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va b.) bilan, shuningdek, fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalanadigan kesim ot kesim deb ataladi.

Gap bo'laklari grammatikaning sintaksis bo'limida o'rganiluvchi muhim va katta mavzulardan biridir. Gap bo'laklari bevosita morfologiya bilan bog'liq bo'lib, 6ta so'z turkumlarini o'rganmagunga qadar gap bo'laklarini tushunish murakkablik tug'dirishi mumkin. Shu boisdan yuqorida ko'rsatilgan 16 bo'limlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak morfologiya bo'limi sintaksis bo'limidan avval o'rganilishi ko'rsatib o'tilgan. Chunki, biz gaplarni tahlil qilayotgan paytda bu bo'limlarning har ikkisiga ham bir vaqtning o'zida murojaat qilamiz. O'zbek tilida bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklari mavjud hisoblanadi: ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol. Gapning asosiy ma'no anglatuvchi qismi deb kesim qaraladi va bazi hollarda faqatgina kesimning o'zidan ham muloqot manbayi sifatida foydalanish mumkin. Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, gap bo'laklarining yakka holda qo'llanishi nafaqat kesim doirasida balki, boshqa bo'laklarda ham kuzatilishi mumkin. Bu holat nutqimizda og'zaki hamda yozma holda ishlatiladi. Oddiy kundalik muloqot (so'zlashuv) uslubida ham yoki, yozuvchilar tomonidan asar qahramonlarining nutqi tabiiy, hamda, tasirliroq bo'lishi uchun badiiy uslubda ham foydalanganliklarini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Ammo, gap bo'laklarining tushirib qoldirilishi boshqa uslublarda qo'llanilishi uslubiy xato deb qaraladi va bunday vaziyatlarda o'quvchi uchun tushunmovchilik kelib chiqishi ham mumkin.

Gap bo'laklari yakka so'z holda yoki ibora va so'z birikmasi bilan ham ifodalanishi ham mumkin. bunday vaziyatda ularni tahlil qilishda ehtiyotkor bo'lish

lozim. Bazi hollarda o`quvchilar tomonidan gap tarkibida qatnashgan va bir gap bo`lagi ko`rinishida kelgan ibora yoki so`z birikmalarini ham tahlil qilish holatlari kuzatiladi va bu noto`g`ri hisoblanadi. Gap bo`laklari tahlili sinchkovlik va aniqlikni talab qiladi va har bir so`zga alohida yondashish lozimdir. Gap bo`laklari yakka so`z holida yoki ibora va so`z birikmasi bilan ham ifodalanishi mumkin. gap bo`laklarining bunday ifodalanishi tahlil muallifidan lingvistik bilimlarni talab qiladi. O`zbek tili sintaksisining o`rganish obyekti bo`lgan so`z birikmalari frazalar va iboralar tarkibidagi elementlarni alohida tadqiq qilish uning semantik va sintaktik tahliliga to`g`ri kelmaydi. Ushbu lingvistik birliklar mavjud strukturasi saqlagan holda bir gap bo`lagi sifatida tahlil qilinadi. Masalan: Onamning bu gapni eshitgach tepa sochi tikka bo`ldi. Gapidagi tepa sochi tikka bo`ldi iborasi achchiqlandi ma`nosida kelgan va ushbu fraza bir gap bo`lagi, ya`ni, kesim sifatida tahlil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G`ulomova, Sh. Yo`ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to`plami. (o`quv qo`llanma). TDPU, Toshkent, 2009-yil.
3. Jamolxonov H.A. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 25-bet.
4. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik –Toshkent Fan. 2007. - B. 255.
5. M.T. Irisqulov. „Tilshunoslikka kirish“. Toshkent „Yoshlar matbuoti“2009.